

Safarboyeva Anaxon Ulug'bek qizi

Urganch davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

rsafarboyev7@gmail.com

O'RTA ASRLARDA XORAZM ARAB SAYYOHLARI NIGOHIDA

Kalit so'zlar: Ibn Battuta, Xorazm, Ibn Havqal, Xorazm bozori, Yoqut Hamaviy, Jayhun, Xitoy, Hindiston, Kot, Al-Jurjoniya, Xorazm qovuni, xorazm tili va yozuvi, Ma'mun akademiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmning o'rta asrlarga xos xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida arab sayyohlarining asarlari orqali qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

Ключевые слова: Ибн Баттута, Хорезм, Ибн Хавқал, Хорезмский рынок, Якут Хамави, Джайхун, Китай, Индия, Кот, Аль-Джурджания, Хорезмская дыня, Хорезмский язык и письменность, Академия Мамуна.

Аннотация: В данной статье представлены интересные сведения о средневековой экономической, общественно-политической жизни Хорезма через произведения арабских путешественников.

Key words: Ibn Battuta, Khorezm, Ibn Havkal, Khorezm market, Yakut Hamavi, Jayhun, China, India, Kot, Al-Jurjaniya, Khorezm melon, Khorezm language and script, Mamun Academy.

Abstract: This article provides interesting information about the medieval economic, socio-political life of Khorezm through the works of Arab travelers.

Kirish. Qadim zamonlardan buyon Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Xorazm xalqaro va mintaqaviy miqyosda siyosiy, savdo-iqtisodiy masalalarda muhim geostrategik o'rin egallab kelgan. Bu hududning keng sug'orish va mo'l-hosil olish imkoniyatiga ega bo'lishi, muhim savdo chorrahasida joylashishi qudratli davlatlar, ko'chmanchi qabilalarning doimo diqqat e'tiborida bo'lganlar va intilganlar. Arab xalifaligi tashkil topganidan keyin turli xil vazifalar bajarish maqsadida arab elchilari va sayyohlari dunyoning turli qismlariga, shu qatori Xorazm hududiga safarlar uyushtirishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Arab sayyohlaridan eng mashhurlaridan biri Ibn Battuta sayohatini Sharq mamlakatlari tomon boshlar ekan, Xorazmga kelganda bu joydagi ta'rifni quyidagicha beradi: "Sahroda har ikki kunlik yoki uch kunlik masofada ma'lum suvliklarda suv bo'ladi, bu yomg'ir va quduq suvidir" deydi. Sayyoh bilan safarda bo'lgan ko'pchilik Xorazmga kelganda bu sahroni oralab o'tish uchun va yem-xashak yetishmasligi sababli yo'lda shoshilar edilar. Bu sahro kesib o'tilgach Xorazmga yetib borishadi. Ibn Battuta o'z asarida Xorazm-turklarning katta, chiroyli shahari, ajoyib bozori, keng ko'chalari mavjud deydi. Aholisi haqida to'xtatilib, aholisi shu qadar ko'pki - u mavjlanib turgan dengizga o'xshaydi¹. Ot bozoridan o'tib shovur deb atalgan joydan chiqdim bu joyda odam juda ham tumonat edi, keyin menga shu yerdagi bir sotuvchi bu yerlar juma kuni unchalik gavjum bo'lmasligini aytdi va o'sha kuni Qaysariya va boshqa bozorlar yopib qo'yiladi dedi. Xorazm bu paytda O'zbek qo'l ostida bo'lib, bu shaharga Qutlug' Temur ismli uning ulug' amiri hukmronlik qilar edi.

Xorazmdagi aholi haqida butun dunyo bo'ylab qilgan sayohatimda men xorazmliklardan ko'ra xushxulq, oliyjanob, ajnabiylarga nisbatan mehmondo'st odamlarni uchratmagan edim deydi. Keyinchalik Xorazmdagi masjidlar haqida to'xtaladi. Xorazmdagi masjidlarda namoz payti kim namozini ado etmasa ularga jazo tortiladi. Har bir masjidda qamchi osilib turadi bundan tashqari, 5 dirham jarima ham to'lanadi. Bu to'lov masjid sarf-xarajati va kambag'allar foydasi uchun ishlatilar edi. Bu o'lkaning dehqonchiligiga katta ta'sir qilgan Amudaryoni esa Xorazm yonida Jayhun oqib turadi. Bu daryo jannatdan boshlanadigan to'rt nahrning biridir. Bu daryo qishda besh oy muzlaydi. Sersuv payti qayiqalar bo'lib bu orqali Termizga suzib boradilar. Ibn Battuta Xorazmga kelganda ulug' amir Qutlug' Temur bod kasalligiga chalingani, o'sha paytda aholi orasida bu kasallik keng tarqalgan deb ma'lumot beradi asarida.

¹ Иброхимов Н. Ибн Баттута ва унинг Урта Осиёга саёхати, Т., 1993. Б.57.

Xorazm savdosi va xo‘jalik hayotida Xorazm qovuni muhim hisoblangan. Chunki G‘arbda ham, Sharqda ham Xorazm qovuniga teng keladigani dunyoda yo‘q. Asarida o‘sha paytda Buxoro va Isfahon qovunlari ham mashhur bo‘lgani yoziladi. Bu qovunni bo‘lak-bo‘lak qilib kesib, oftobda quritib, savatga solib, Xorazmdan Hindistonga va Xitoyning uzoq shaharlariga olib borib sotildi. Barcha quritilgan mevalar ichida qovun qoqiga teng keladigani yo‘q. Ibn Battuta bu qovun qoqini juda yaxshi ko‘rganini aytib, hatto Hindistonning Dehli shahriga borganida ham shu qovun qoqini sotib olganini aytadi.

Tahlil va natijalar. O‘rta asrlar Markaziy Osiyo haqida ma‘lumot beruvchi “Kitob surat al-ard” asarida Ibn Havqal: “Xorazm bir o‘lkaning nomidir. Bu o‘lka Xurosondan ham, Movarounnahrda ham alohidadir. Uning har tomonini cho‘llar o‘rab turadi. Jayhun daryosining oxirida, daryoning har ikki tomonida joylashgan nohiyadir” deb ta‘rif beradi.² Ibn Havqalning ma‘lumotlariga ko‘ra, Xorazm Jayhun daryosining oxirida joylashgan. Eng katta shahri shimol tomonida joylashgan, janubida esa al-Jurjoniya nomli katta bir shahar bor. Poytaxti esa Kot shahri bo‘lgan, lekin keyinchalik vayron bo‘lgan. Kotning yonida Al-Jurjoniya o‘xshash shahar quriladi³. Poytaxtda ko‘handiz, madina va kohandizning orqasida jome masjidi bor deb ta‘riflaydi. Shaharning o‘rtasida shahar va bozorni kesib o‘tuvchi Xarkur nomli ariq o‘tgan. Ibn Havqal ham Amudaryo qishda qattiq muzlashi va bu paytda og‘ir yuklarni olib o‘tilishini aytadi. Xorazmshohlar davrida ilm-fan va san‘at rivojlandi. Saljuqiylar davridayoq imperiyaning muhim madaniy va siyosiy markazlarida ilm va adabiy faoliyat jonlangan edi. Mo‘g‘ul istilosidan biroz oldin bu erdan chiqib ketgan Yoqut Hamaviy Xorazm haqida quyidagi fikrlarni keltirib otgan: “Xorazmliklarning turklar bilan o‘xshash tomonlari bor. Balki turklarning musulmon o‘lkalariga asir qilib olib kelishgani uchun o‘xshashliklari bordir. Xorazm atrofi qumlar bilan o‘ralgan. Bu cho‘llarda turklar va turkmanlar chorvadorlik bilan shug‘ullanishgan. Turklar sinflaridan tatarlar 618-yilda Xorazmga talonchilik yurishi qilgani haqida eshitdim”.⁴

Yoqut Hamaviy Marv shahrida o‘sha vaqtda o‘nta kutubxona bo‘lganligi to‘g‘risida yozgan edi. Jome masjidi kutubxonasida 12 ming jild kitob bo‘lgan. Shahardagi barcha kutubxonalardan foydalangani va shu tufayliga asarlarini yoza olganini e‘tirof etgan. Yoqut Marvda lozim bo‘lgan asar nusxalari ham ko‘p bo‘lganligini, asosiy e‘tibori bilan dunyoning biror shahridagi kutubxona Marv bilan bellasha olmasligini qayd qilgan edi. Bu Xorazmshohlar davrida Mavrning buyuk bir madaniyat markaziga aylanganligidan dalolat. Mamlakat madaniy hayotida Nishopur ham muhim o‘rin tutgan. Bu shahar karvon yo‘lida joylashgan bo‘lib muhim savdo markazi edi. Xorazmshohlarning insho devoniga har doim davrning eng mashhur munshiylari rahbarlik qilgan⁵.

Xorazmning X-XI asrlarda Xazarlar yurti va Volgabo‘yi hududlari bilan savdo aloqalari avj olgan. Bulg‘orlarning iltimosiga ko‘ra, 922-yili arab xalifasi tomonidan Bulg‘orga yuborilgan elchi Ibn Fadlan Eron-Xuroson-Buxoro-Xorazm orqali o‘tishi ham bejiz bo‘lmasa kerak. Zero, Bag‘doddan Bulg‘oriyaga Kavkaz orqali ham borish mumkin edi.⁶

² Ибн Хавкал. Китоб сурат ал-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолитдин. – Тошкент:, Т., 2011. Б.34.

³ Ўша асар. Б.39.

⁴ Şeşen, **Ramazan**. **Islam coğrafyacilarına göre Türkler ve Türk ülkeleri**. Ankara: Turk Tarih Kurumu, 2001. P 148.

⁵ Машарипов К. Хоразмнинг Урта Шарк ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар), У., 2016. Б.38.

⁶ Крачковского И.Ю. Путешествие Ибн-Фадлана на Волгу. –М.: 1939. С.67

Bu Xorazmning Volgabo‘yi xalqlari bilan ijtimoiy-siyosiy, madaniy aloqalari yuqori bo‘lgani sababidan xalifalik elchilari aynan Xorazm orqali Volga bo‘yiga sayohat qilgan, deb fikr bildirishga imkon beradi.⁷ 985-yilda Xorazm siyosiy arboblari Bulg‘oriyaga hujum qilgan Kiyev Rusi knyazi Vladimirning harakatlariga har xil yo‘llar bilan to‘sqinlik qilishgan va uning muvaffaqiyatsiz chiqishiga “ko‘maklashganlar”. X-XII asrlar davomida Xorazm nafaqat Sharqiy Yevropa, Volgabo‘yi va Rus bilan bo‘lgan savdoda tranzit hudud rolini o‘ynagan, balki u o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish imkoniyatidan keng foydalangan.⁸

Takash davrida bu vazifada mashhur Bahouddin Bog‘dodiy ishlagan bo‘lsa, Jaloliddin zamonida Nasaviy xizmat qilgan⁹. Ulardan tashqari, Zamahshariy, Rashididdin Vatvot, Faxriddin Roziy kabi olim va shoirlar Xorazmda yashab ijod qilganlar. Xorazm tili so‘zlashuv yoki yozuv tili sifatida arab va fors tili qatorida o‘z ahamiyatini XIII asr oxirlarigacha saqlab qolgan. A.A.Freymaning ko‘rsatishiga qaraganda, Xorazm tili XIII-XIV asrlardan keyin tamomila turklashadi. Xorazmshoh Otsiz davrida Ma‘mun akademiyasiga o‘xshagan Akademiya tashkil etildi. Ma‘mun akademiyasi 17 yil faoliyat yuritgan bo‘lsa, Otsiz davridagi Akademiya olimlar 60 yil fan va madaniyat ravnaqiga hissa qo‘shganlar. Umid Bekmuhammadning ma‘lumotiga ko‘ra ham Xorazmning boranj nomi bilan yuritiladigan qovuni juda shirinligi haqida aytadi. Agar bu navdagi qovun yaxshi pishib yetilsa, 700 dirhamga sotiladi. Amudaryoning muzlashi haqida shunday ta‘rif yozadi "Daryo shu darajada qattiq muzlaydiki, ustidan fil, karvon o‘tadi¹⁰. Muzlash vaqti qirq kundan ikki oygacha" deb. Bundan tashqari ma‘lumotida tanjalik sayyohning sarguzashtlari haqida misollar keltiradi. Tanjalik sayyoh bu Ibn Battutadir. Ibn Battuta 1304-yil 24-fevralda Marokashning Tanja shahrida tug‘ilgan.

Xulosa. Arab sayyohlari Xorazm haqida juda ko‘plab ma‘lumotlarida bu o‘lkaning aholisini va xo‘jalik hayoti haqida juda yuqori ta‘rif berib o‘tadilar. Bu shaharning rivojiga katta hissa qo‘shgan sersuv Amudaryoning bo‘lishi, qovunning shirinligi tufayli Sharq va G‘arbni o‘ziga tortganligi va madaniyat sohasida Ma‘mun akademiyasi va undan ham ko‘proq faoliyat yuritgan Otsiz tomonidan asos solingan Akademiyaning bo‘lishi Xorazmning o‘sha davrdagi hayotini yaqqol ko‘rsatadi. Shaharlari ham yirik madaniyat, savdo va hunarmandchilik markazi bo‘lgan. Mamlakat hayotida insho ya‘ni kotib lavozimida ishlaydiganlar asosan tarixchilar bo‘lib, ular kerakli maslahatlarini berib borganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иброхимов Н. Ибн Баттута ва унинг Урта Осиёга саёхати, Т., 1993.
2. Ибн Хавкал. "Китоб сурат ад-ард", Т., 2011.
3. Şeşen, **Ramazan**. Islam coğrafyacilarına göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Turk Tarih Kurumu, 2001.
4. Машарипов К. Хоразмнинг Урта Шарк ва Yевропа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари(X-XV асрлар), У., 2016.
5. Крачковского И.Ю. Путешествие Ибн-Фадлана на Волгу. –М.: 1939.
6. Абдиримов Бекзод. Хоразмийлар изини излаб VIII-XIII асрлар Евроосиё ҳудудларида кечган сиёсий ва этник жараёнларда хоразмликларнинг ўрни. – Т.: “Sharq ma‘rifati nashr-matbaa uyi”, 2021.
7. **Internet saytlari :**
8. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/322>
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-xorazmga-kelgan-sayyohlar.html>

⁷ Абдиримов Бекзод. Хоразмийлар изини излаб VIII-XIII асрлар Евроосиё ҳудудларида кечган сиёсий ва этник жараёнларда хоразмликларнинг ўрни. – Т.: “Sharq ma‘rifati nashr-matbaa uyi”, 2021. Б.23.

⁸ Машарипов Қ. Хоразмнинг Ўрта Шарк ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар), У., 2016. Б.97.

⁹ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/322>

¹⁰ <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-xorazmga-kelgan-sayyohlar.html>